


**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2020- yil yanvar-mart)


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2020- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 424,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 1,1 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 150,3 mlrd. so'mni (2019- yilning shu davriga nisbatan 19,0 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 273,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 157,7 mlrd. so'mni (2019- yilning shu davriga nisbatan 102,5 %) tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**



2019- yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xo'jayli, To'rtko'l, Mo'ynoq va Qo'ng'irot tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari, (% da)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan Nukus shahri (respublika umumiyligi hajmiga nisbatan ulushi - 30,4 %), Xo‘jayli (9,8 %), Beruniy (9,8 %), To‘rtko‘l (8,7 %) va Qo‘ng‘iroq (7,3 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan 19,0 % ga kamaydi va 150,3 mlrd. so‘nni tashkil qildi. Bu esa umumiyligi savdo hajmining 10,5 % iga to‘g‘ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra 1 273,7 mlrd. so‘nni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 4,1 % ga o‘sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,5 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (% da)

2019- yil
yanvar-mart




2020- yil
yanvar-mart



■ Yirik korxonalar
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi, (% da)



■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
■ Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Bo'zatov (100,0 %), Qonliko'l (99,9 %), Kegayli (99,6 %), Shumanoy (99,6 %) va Qorao'zak (99,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 10,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (26,7 %), Taxiatsosh (16,4 %) va To'rtko'l (7,8 %) tumanlarida kuzatilgan.

Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	150 292,5	81,0	1 273 739,1	104,1
<i>Shahar va tumanlar:</i>				
Amudaryo	4 222,8	88,1	96 633,7	101,5
Beruniy	2 924,8	93,3	136 050,5	101,3
Bo'zatov	-	-	5 810,8	101,5
Qonliko'l	52,1	48,5	34 716,6	101,7
Qorao'zak	161,4	87,4	43 942,9	100,8
Kegayli	135,9	63,2	31 118,7	101,9
Qo'ng'iroq	3 369,3	85,9	101 086,3	103,2
Mo'ynoq	71,6	35,9	9 657,2	103,5
Nukus	194,8	106,2	25 540,7	100,3

Taxiatosh	5 590,8	87,9	28 580,2	103,6
Taxtako'pir	1 869,3	34,1	34 920,4	113,4
To'rktol'	9 687,3	75,7	114 248,7	104,8
Xo'jayli	2 514,5	88,7	137 697,0	101,9
Chimboy	1 952,5	52,5	50 072,4	104,2
Shumanoy	111,3	40,2	29 054,6	102,1
Ellikqal'a	1 473,7	95,9	77 005,2	101,0
Nukus sh.	115 960,4	82,9	317 603,1	108,8

2020- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 749,1 ming so'mni tashkil qilib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 0,4 % ga kamaygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning yanvar-mart oylarida 2019- yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o'sish qayd etilib, eng yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri (1 353,6 ming so'm), Xo'jayli (1 141,8 ming so'm) va Taxtako'pir (917,4 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Bo'zatov (269,0 ming so'm), Mo'ynoq (305,0 ming so'm) va Kegayli (431,1 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika shahar va tumanlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Hajmi (Ming so'm)	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	749,1	99,6
2020-yil yanvar-mart	QORAQALPOG`ISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI	5

Shahar va tumanlar:


Amudaryo	505,5	98,9
Beruniy	725,0	99,1
Bo'zatov	269,0	101,0
Qonliko'l	681,7	100,3
Qorao'zak	835,3	100,0
Kegayli	431,1	100,7
Qo'ng'iroq	802,9	101,3
Mo'ynoq	305,0	100,2
Nukus	511,6	98,3
Taxiatosh	462,4	99,3
Taxtako'pir	917,4	100,9
To'rko'l	577,5	99,9
Xo'jayli	1 141,8	100,4
Chimboy	462,9	99,6
Shumanoy	519,0	100,4
Ellikqal'a	492,3	99,0
Nukus shahri	1 353,6	98,9

Jumladan, 2020- yilning yanvar-mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,7 % ni tashkil etib, 39,1 mlrd. so'mga yetdi yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI (2020- yil yanvar-mart)

2020- yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 375,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019- yilning shu davriga nisbatan 7,5 % ga kamaydi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra 265,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 99,3 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 70,9 % ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichni tumanlar bo'yicha tahlil qilganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Qo'ng'iroq, Qonliko'l, Mo'ynoq, Nukus, Chimboy va Ellikqal'a tumanlarida 100 % ni tashkil etgan.

Yirik korxonalar va kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (% da)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 29,1 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo'jayli (jamiga nisbatan ulushi – 93,0 %), Nukus shahri (21,3 %) va Amudaryo (6,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	375 165,2	92,5	109 295,3	79,3	265 869,9	70,9
<i>Shahar va tumanlar:</i>						
Amudaryo	5 865,7	190,5	374,3	2,5 b.	5 491,4	93,6
Beruniy	21 328,9	112,6	-	-	21 328,9	100,0
Bo'zatov	626,8	100,4	-	-	626,8	100,0
Qonliko'l	6 311,4	156,9	-	-	6 311,4	100,0
Qorao'zak	3 812,6	4,9 b.	-	-	3 812,6	100,0
Kegayli	355,5	158,1	0,4	118,0	355,1	99,9
Qo'ng'iroq	10 896,2	143,0	-	-	10 896,2	100,0
Mo'ynoq	931,4	3,0 b.	-	-	931,4	100,0
Nukus	23 158,4	84,9	-	-	23 158,4	100,0
Taxiatosh	6 864,3	90,4	187,0	65,4	6 677,4	97,3
Taxtako'pir	3 092,7	108,4	73,4	496,4 b.	3 019,3	97,6
To'rtko'l	22 110,5	170,7	676,9	53,7	21 433,6	96,9
Xo'jayli	77 241,0	97,3	71 861,5	95,9	5 379,5	7,0
Chimboy	5 878,1	108,1	-	-	5 878,1	100,0
Shumanoy	117,9	178,4	0,4	15,3	117,5	99,7
Ellikqal'a	17 001,1	95,4	-	-	17 001,1	100,0
Nukus sh.	169 572,6	78,2	36 121,4	59,4	133 451,2	78,7

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
2019- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (% da)**



Ulgurji tovar aylanmasida 2019- yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'zgarish sur'atlari Nukus shahrida (78,2 %), Nukus (84,9 %), Taxiatosh (90,4 %), Ellikqal'a (95,4 %) va Xo'jayli (97,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.: 71 230-82-06